

**“4+2” MODELI ASOSIDA BO`LAJAK TEXNOLOGIYA FANI  
O`QITUVCHILARINING MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*Umarjonova Nodira Abduxamid qizi*

*Stajor o`qituvchi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*“Texnologik ta’lim metodikasi” kafedrası*

*Toshkent shahri [nodira5655@gmail.com](mailto:nodira5655@gmail.com)*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada “4+2” modeli asosida bo`lajak texnologiya fani o`qituvchilarining kasbiy ko`nikmalarini rivojlantirish metodlari, xususan mediasavodxonligini rivojlantirish hamda talabalarning kasbiy ko`nikmalarini rivojlantirishda amaliy va nazariy ta`limni birgalikda olib borishning ahamiyati haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** ta`lim jarayoni, kasbiy ko`nikma, texnologiya, “4+2” modeli, ta`lim beruvchi, mediasavodxonlik, axborot almashinuvi.

Respublikamizda yangi yondashuv asosida olib borilayotgan tizimli ishlar, strategiyalar ichida ta`lim jarayonini modernizatsiyalash hamda uni optimallashtirish masalalari katta ahamiyatga ega. Ma`lumki, hozirda aqliy va jismoniy qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan, raqobatbardosh hamda dunyo miqyosidagi mamlakatlar talablari doirasida mutaxassisligini takomillashtiruvchi kadrlar tayyorlash bugungi ta`lim tizimi oldida bir qator vazifalarni qo`yibgina qolmay, uning o`ziga xos umumiy va xususiy yechimlarini ham ishlab chiqmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dasturni tasdiqlash to`g`risida” gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida [1] hamda 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta`lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta`lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi PQ-289- Qarorining 2-bandida [2] pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta`lim muassasalari kunduzgi ta`lim shaklida tahsil olayotgan 2-4 bosqich talabalari uchun haftalik o`quv mashg`ulotlari “4+2” tartibida, ya`ni darslarning 4 kuni oliy ta`lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o`rta ta`lim muassasalarida amaliyot o`tash tartibida olib borilishini ta`minlash vazifasi ko`rsatilgan edi. Bu vazifani to`laqonli bajarish maqsadida barcha pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta`lim muassasalari, xususan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalar uchun maktabgacha va umumiy o`rta ta`lim muassasalarida tashkil etiladigan o`quv va pedagogik amaliyotlarini “4+2” dasturi asosida tashkil etishni boshladi. Bizda bir savol tug`iladi. Bu dastur o`z oldiga qo`yilgan vazifalarni qanchalik bajarmoqda va bu talabalarning kasbiy ko`nikmalarini rivojlantirishda ahamiyatlimi?

Bu masalani esa aynan bo`lajak texnologiya fani o`qituvchilarining bugungi kundagi "4+2" modeli asosida olib borayotgan o`quv amaliyotlarida ko`rib chiqish maqsadga muvofiq.

Ta`lim jarayonida ta`lim oluvchilar ta`lim beruvchilar bilan uzviy bo`g`liqligini hisobga olgan holda, ularning nafaqat nazariy bilimlari balki amaliy ko`nikmalarini ham takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish lozim. Bunda o`qituvchilarning xalqaro tadqiqotlarda faol va munosib ishtiroklarini ta`minlash hamda olingan natija va xulosalardan kelib chiqib mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadga muvofiq. Muammolarni o`rganish natijasida o`qituvchilarda media savodxonlikning yetishmasligi, ta`lim jarayonida an'anaviy o`qitish tizimi mavjudligi aniqlandi. Natijada, o`qituvchilarda nafaqat media, hattoki axborot savodxonligining yetishmasligi yoki bu bilimlarning takomillashmaganligini kuzatishimiz mumkin.

Bu model ta`lim jarayonlarini tashkil etishga yangicha yondashuv o`laroq, talabalarning nazariy bilimlarini, bevosita amaliyot davomida qo`llashga hamda ularni ko`nikma va malakalarga aylanishiga tirgak bo`lmoqda. Texnologiya fani o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltiruvchi fan sifatida talabalardan yangi o`zlashtirilgan nazariy bilimlarni bevosita umumiy o`rta ta`lim maktablarida qo`llashga undaydi. Fanning asosiy mazmuni amaliy mashg`ulotlardan iborat ekanligini inobatga olsak, amaliy tarzda olib boriladigan dars mashg`ulotlarining mazmunini ochib berishda talabalardan tezkorlik, kreativlik talab etiladi. Bunda talabalarning oliy ta`lim muassasasida olgan yangi nazariy hamda amaliy bilimlarini umumiy o`rta ta`lim maktablarida qo`llash bilan bu bilimlarning samaradorlik darajasini aniqlashga erishishlariga sabab bo`lmoqda. Bilim doimo dalillar bilan bog`lanishini bilgan holda, oliy ta`lim muassasasida olingan bilimlarini dalillash uchun amaliyot jarayoni dasturi amal bo`lmoqda.

Bo`lajak texnologiya fani o`qituvchilarining kasbiy ko`nikmalarini shakllantirishda "4+2" dasturi asosida tashkil etilayotgan ta`lim jarayonlari to`laqonli o`zini oqlayotganligini ularning natijalaridan ham ko`rish mumkin. Bilimlarni amalda qo`llash asosida bo`lajak texnologiya fani o`qituvchilarining nazariy ma'lumotlarni muvaffaqiyatli o`zlashtirishlari uchun yangi tajribalar olish muhim. Chunki, bu jarayonda fanning kreativlik bilan bevosita bog`liq ekanligini unutmagan holda, doimiy ravishda rivojlanish va bilim bilan malaka o`rtasidagi vujudga keladigan tugunlarni yechish ahamiyatli.

Media va axborot savodxonligining ta`lim jarayonlariga integratsiyasi ta`lim oluvchilarda muammolarni hal qila olish va tanqidiy fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, asosiy manbani tahlil qilishni, media hamda kutubxonalar, arxivlar va boshqa axborot xizmatlari uchun majburiy deb hisoblangan ijtimoiy xizmatlarning ma'lum funksiyalari asosida axborotni baholashni o`rgatadi.

Xulosa o`rnida, bugungi nazariy ta`limning amaliyotda qo`llanilishini keng targ`ib qilishga sabab bo`lgan "4+2" modeli talabalarning nafaqat kasbiy, balki aqliy

salohiyatlarini ham rivojlantirishda, xususan mulohaza qilishga o`rgatayotganligi yangi kadrlarning ta'lim jarayoniga kirib kelayotganini va bu o`z o`rnida ta'limning muvaffaqiyatli tizimlashayotganligini ko`rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-sonli Farmoni; <https://lex.uz/docs/-6008663>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21- iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-289- Qarori; <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>
3. B.Namazov, M.Fayziyeva, Sh.Sharofaddinov "Media va axborot savodxonligi",- Toshkent. 2018 .
4. R.Hamdamiyov, U.Begimqulov, N.Tayloqov "Ta'limda axborot texnologiyalari",- Toshkent. 2010.
5. Kuysinov O.A., Nosirov A., Abduraimov Sh., Sodikova A., Kutlimuratov K., Mamajonova K. New Uzbekistan-The value of Membership in the Continuous Education System. «INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION» Scopus Journal. Vol.37, №2. 2022. ISSN 0827-33-83. <http://internationaljournalofspecialeducation.com> P. 338-348.
6. Umarjonova, N. (2024). INTEGRATION OF TEACHING OF SPECIALISTS WITH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. B INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY (T. 4, Выпуск 6, сс. 25–27). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11519212>
7. Mambekova, S. (2024). IMPLEMENTATION OF SCIENTIFIC-RESEARCH WORKS FOR THE PURPOSE OF A NEW APPROACH IN THE TEACHING OF SPECIALIZED SUBJECTS. B INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY (T. 4, Выпуск 6, сс. 28–29). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11519238>